



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIGI MASALALARIGA IJTIMOYIY-FALSAFIY YONDASHUV

M. Abduraxmonov

O'zbekiston Milliy universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan kompleks tahlil qilinib, global transformatsiyalar sharoitida xavfsizlik tushunchasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liqligi asoslanadi. Tadqiqotda xavfsizlik, zamonaviy tahdidlar, geosiyosiy jarayonlar va integratsiya masalalari chuqur tahlil qilinib, ishonch va hamkorlik omillarining mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, xavfsizlik, ishonch, geosiyosat, barqarorlik, integratsiya.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД К РЕГИОНАЛЬНЫМ ВОПРОСАМ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

М. Абдурахмонов

Национальный университет Узбекистана, доцент (PhD)

Аннотация

В статье проводится комплексный социально-философский анализ проблем региональной безопасности в Центральной Азии, обосновывается взаимосвязь понятия безопасности с социальными, экономическими и культурными факторами в условиях глобальных трансформаций. В исследовании глубоко анализируются вопросы безопасности, современные угрозы, геополитические процессы и интеграционные тенденции, а также раскрывается значение факторов доверия и сотрудничества в обеспечении региональной стабильности.

Ключевые слова: Центральная Азия, безопасность, доверие, геополитика, стабильность, интеграция.

A SOCIAL AND PHILOSOPHICAL APPROACH TO REGIONAL SECURITY ISSUES IN CENTRAL ASIA

M. Abdurakhmonov

National University of Uzbekistan, Associate Professor (PhD)

Abstract

The article provides a comprehensive socio-philosophical analysis of regional security issues in Central Asia and substantiates the interconnection between the concept of security and social, economic, and cultural factors in the context of global transformations. The study offers an in-depth examination of security issues, contemporary threats, geopolitical processes, and integration trends, and also reveals the significance of trust and cooperation as key factors in ensuring regional stability.

Keywords. Central Asia, security, trust, geopolitics, stability, integration.

XXI asrda xavfsizlik tushunchasi jiddiy transformatsiyaga uchradi. Ilgari u asosan harbiy xavflar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy omillarni ham qamrab olmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi geostrategik joylashuvi sababli dunyo siyosatida muhim o'rin tutadi. Ushbu hududdagi xavfsizlik masalalari nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyatga ega. Mintaqa hududi orqali qadimdan Yevropa va Osiyoni bog'laydigan Buyuk Ipak yo'li kabi xalqaro savdo yo'nalishlari o'tgan bo'lib, ularning xavfsizligini ta'minlash ushbu hududda turli davrlarda mavjud bo'lgan davlatlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. Chunki geografik jihatdan xalqaro dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan mintaqada karvon yo'llari muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, ushbu karvon yo'llari vositasida Markaziy Osiyo dunyo bilan bog'langan hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan yuksalishga erishgan. Madaniyatlararo munosabatlarning barqarorligi va iqtisodiy aloqalarning uzluksizligidan qo'shni mintaqalar ham manfaatdor bo'lganliklari sababli, turli davrlardagi o'zaro urushlar va mojarolarga qaramasdan, karvon yo'llarida markaz rolini o'ynagan bu hududdagi xavfsizlik va barqarorlik doimo nazorat qilib borilgan. Mintaqa davlatlari mustaqillikka erishgandan keyin milliy xavfsizlik tizimini shakllantirish bilan birga, mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yishga harakat qildilar.

Ammo geosiyosiy raqobat, zaxiralar taqsimoti va tashqi ta'sirlar xavfsizlikni ta'minlash ishini murakkablashtirganligi nuqtai nazaridan qaraganda, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Metodologiya

Tadqiqotda mintaqada xavfsizlik evolyusiyasini tahlil qilish metodi, an'anaviy va zamonaviy xavfsizlik mexanizmlarini solishtirishda esa tarixiy-ilmiy metod qo'llanildi. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni anglash uchun uning tarixiy ildizlari va sivilizatsion asoslarini tahlil qilish zarur. F. Starr fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo o'rta asrlarda ilm-fan va savdo markazi bo'lib, barqarorlik ko'p hollarda madaniy aloqalar orqali ta'minlangan hamda mintaqada xavfsizlikning an'anaviy modeli integratsiya va muloqotga asoslangan [1,112]. Muammoga tarixiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, mintaqada barqaror xavfsizlikni ta'minlash uchun ishonch, hamkorlik va integratsiya asosiy omillar hisoblanadi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil xavfsizlikni faqat siyosiy yoki harbiy masala sifatida emas, balki inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida o'rganadi. Bu yondashuvga ko'ra, xavfsizlik ijtimoiy barqarorlik, adolat, ishonch va umumiy qadriyatlar bilan bog'liq kompleks tushunchadir. Markaziy Osiyo sharoitida xavfsizlikni to'g'ri anglash uchun uning ijtimoiy ildizlari va madaniy omillarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik masalalarini chuqur anglashda qiyosiy tahlil metodidan foydalanilib, turli davlatlarning xavfsizlikni ta'minlashdagi tajribasini o'zaro solishtirish imkoniyati yaratildi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qiyosiy tahlil nafaqat siyosiy institutlar yoki harbiy strategiyalarni, balki ijtimoiy munosabatlar, ishonch darajasi va madaniy qadriyatlarni ham qamrab oladi. Jumladan, mintaqada davlatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — xavfsizlikni ta'minlashda o'ziga xos modellarni shakllantirgan bo'lib, ularni qiyosiy tahlil qilish mintaqadagi umumiy tendensiyalarni ochib beradi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni tadqiq etishda tizimli yondashuv muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv xavfsizlikni alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchi komponentlardan tashkil topgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Muhokama va tahlil

XX asrda Markaziy Osiyo xavfsizligi Sovet Ittifoqi doirasida shakllandi hamda markazlashgan tarzda boshqarildi. Tashqi tahdidlarga qarshi yagona strategiya amal qilishi bilan ichki barqarorlik ta'minlandi. O'z navbatida, bu tizim mintaqada respublikalarida milliy xavfsizlik institutlarining mustaqil rivojlanishini chekladi. Shu bois mustaqillikdan keyingi davrda mazkur institutsional bo'shliqlarni to'ldirish jarayoni boshlandi. 1991 yildan keyin Markaziy Osiyo davlatlari milliy xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqdi, tashqi siyosatni diversifikatsiya qildi va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga kirishdi. Hozirgi kunda xavfsizlik tizimiga globallashuv, geosiyosiy raqobat va transmilliy tahdidlar ta'siri kuchayganligi bois u ko'pqutblilik va mintaqaviy hamkorlikka asoslanib shakllanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarida xavfsizlik siyosati ko'pqutbli tashqi siyosat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka asoslanadi, ammo milliy xavfsizlikni ta'minlashda geosiyosiy muvozanatni saqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, O'zbekiston va Qozog'iston kabi mintaqaning yetakchi davlatlari M. Laumulin ta'kidlaganidek, "boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni mustahkamlash va xalqaro institutlar bilan aloqalarni chuqurlashtirish" siyosatini olib bormoqda [2,31]. Ular mintaqada barqarorlikni ta'minlashda tashqi va ichki omillarni uyg'unlashtirishga intiladilar. O'zbekistonda so'nggi yillarda xavfsizlik siyosati ochiqlik, yaxshi qo'shnichilik va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Qirg'iziston tajribasi xavfsizlikning ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka bog'liqligini namoyon etadi. Tojikistonda xavfsizlik siyosati asosan ichki barqarorlik va chegara xavfsizligiga qaratilgan. Turkmanistonda esa betaraflik siyosati tashqi xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mintaqada davlatlari turli strategiyalarni qo'llashlariga qaramasdan, geosiyosiy muvozanatni saqlash, ichki barqarorlikni ta'minlash va tashqi tahdidlarga qarshi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga intiladilar. Shu bilan birga, tashqi siyosatdagi yondashuvlar, integratsiya darajasi va institutsional rivojlanish kabi omillar mintaqaviy xavfsizlik tizimining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi globallashuv jarayonida mintaqada xavfsizlik tizimi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va axborot xavfsizligi yo'nalishlarida shakllantirilishi lozim. Chunki ushbu sohalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ulardan birida yuzaga kelgan muammo butun tizimga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan xavfsizlik inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida qaraladi. U nafaqat davlat siyosati va harbiy kuch, balki ijtimoiy munosabatlar, ishonch va madaniy qadriyatlar bilan ham belgilanadi. Al-Forobiy ta'limotiga ko'ra, jamiyat a'zolari o'rtasida kelishuv va hamkorlik mavjud bo'lgandagina barqarorlik va xavfsizlik

ta'minlanadi [3,72]. Ijtimoiy kapital nazariyasiga ko'ra, xavfsizlikni ta'minlashda ishonch, hamkorlik va ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o'ynaydi. J. Nay fikriga ko'ra, davlatlar o'rtasidagi ishonch va "yumshoq kuch" barqaror munosabatlarni shakllantiradi [4,44]. Ushbu konsepsiyaga binoan, agar ishonch darajasi past bo'lsa, integratsiya sekinlashadi va xavfsizlik tizimi zaiflashadi.

Xulosa. Markaziy Osiyo xavfsizligini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish uni chuqur va kompleks tushunish imkonini beradi. Xavfsizlik tizimida nafaqat harbiy, balki ijtimoiy va madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy sharoitda ishonch, hamkorlik va integratsiya mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Starr F. Yo'qotilgan uyg'onish. — Prinston, 2013. — 680 b. — B. 112.
2. Laumulin M. Markaziy Osiyo transformatsiya davrida. — Nur-Sulton: Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi KISI, 2020. — 464 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. — 222 b.
4. Nye J. Yumshoq kuch (Soft Power). — Nyu-York: Public Affairs, 2004. — 191 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi [Elektron resurs]. — URL: <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-sama-10-11-2017>